**Dastlabki ma’lumotlar**

# 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 13 700,2 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 13 212,0 mlrd. so‘mni (103,7 %), o‘rmon xo‘jaligi – 302,0 mlrd. so‘mni (101,9 %), baliqchilik xo‘jaligi – 186,2 mlrd. so‘mni (112,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Navoiy viloyatining ulushi 4,7 % ni tashkil etdi.



**13 700,2** — **Navoiy viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m**

| | | |
|---|---|---|
| 01 | 13 212,0 | Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar |
| 02 | 302,0 | O‘rmon xo‘jaligi |
| 03 | 186,2 | Baliqchilik xo‘jaligi |

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, (% da).



2023- yilning yanvar- sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lar umumiy hajmining 96,4 % –dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 2,2 % – o‘rmon xo‘jaligi, 1,4 % – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi (mlrd.so‘m)




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Xatirchi (4 002,3 mlrd. so‘m), Qiziltepa (2 728,5 mlrd. so‘m) va Navbahor (2 201,3 mlrd. so‘m) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Zarafshon (57,3 mlrd. so‘m), Navoiy (61,6 mlrd. so‘m), G‘ozg‘on shahar (78,5 mlrd. so‘m) larini keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘sish sur’ati G‘ozg‘on shahrida (134,3 %), Tomdi (107,3 %), Uchquduq (105,5 %), Karmana (105,4 %), Qiziltepa (105,5 %) tumanlarida, aksincha Navbahor (102,3 %), Xatirchi (102,0 %) tumanlarida hamda Zarafshon (101,4 %), Navoiy (100,4 %) shaharlarida esa past sur’atlar kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati, (%) da




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 13 106,7 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 4 330,6 mlrd. so‘mni (101,4 %), chorvachilik mahsulotlari 8 776,1 mlrd. so‘mni (104,8%) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

**33,0 %**
**Dehqonchilik mahsulotlari**



**67,0 %**
**Chorvachilik mahsulotlari**





## Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining tumanlar kesimida taqsimlanishi (%) da




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 74,7 % i – dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 20,0 % i – fermer xo‘jaliklariga, 5,3 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tumanlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%) da




2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qiziltepa tumanida (31,5 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Zarafshon shahrida (94,4 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Navoiy shahrida (30,9 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 4330,6 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 101,4 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 33,0 % ni tashkil qildi.

## Donli ekinlar

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**









2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 229,9 ming tonna don (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 2,5 % ga ko‘p) yetishtirildi. Don yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 86,8 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna



# Kartoshka

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**









2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 76,1 ming tonna kartoshka (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1,8 % ga ko‘p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 84,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



# Sabzavotlar

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**









2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 216,8 ming tonna sabzavotlar (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1,1 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 78,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Navoiy viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna



# Poliz ekinlari

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**









2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 63,1 ming tonna poliz ekinlari (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 4,9 % ga ko‘p) yetishtirildi. Poliz ekinlarini yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz yetishtirish umumiy hajmidan 57,5% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha poliz ekinlari yetishtirish hajmi, tonna



# Meva va rezavorlar

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**









2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 86,5 ming tonna meva va rezavorlar (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 2,9 % ga ko‘p) yetishtirildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar yetishtirish umumiy hajmidan 58,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna



# Uzum

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**







2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 69,0 ming tonna uzum (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 92,7 % ni) tashkil etdi. Uzum yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 57,2% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Navoiy viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 8 776,1 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,8 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 67,0 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 141,5 ming tonna go‘sht (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 5,0 % ga ko‘p), 384,1 ming tonna sut (4,2 % ga ko‘p), 317,8 mln. dona tuxum (2,8 % ga ko‘p) yetishtirildi va 8,6 ming tonna baliq (3,5 % ga ko‘p) ovlandi.

# Go‘sht (tirik vaznda)

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 141,5 ming tonna go‘sht (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 5,0 % ga ko‘p) yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 87,7 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Navoiy viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

Hajmi, ming tonna.




O‘sish sur’ati




Yetishtirilgan mahsulotning
xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 384,1 ming tonna sut (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 4,2 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 91,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha sut yetishtirish hajmi, tonna



# Tuxum







**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 317,8 mln. dona tuxum (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 2,8 % ga ko‘p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 70,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha tuxum yetishtirish hajmi, ming dona



# Baliq ovlash

**Hajmi, tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2023- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 8625,0 tonna (2022- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 3,5 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 76,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Navoiy viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 9,0 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 88,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 2,7 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 27,2 % i fermer xo‘jaliklariga, 57,7 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 15,1 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g’ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 12,0 % i fermer xo‘jaliklariga, 56,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 32,0 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 523,4 ming taga yetdi. 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 15,1 ming taga (3,0 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 88,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2023- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 211,4 ming taga yetdi. 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni (2,8 %) ga ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**









2023- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 90,8 % i dehqon dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2023- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 509,3 ming taga yetdi. 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni 92,4 ming taga (3,8 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**









2023- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 57,7 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2023- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 23 403 taga yetdi. 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni 1423 taga (6,5 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**









2023- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 51,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2023- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 3 752,5 ming taga yetdi. 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni 365,5 ming taga (10,8 %) ko‘paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**









2023- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 56,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi
• 79- 223-23-40